TALABA YOSHLARNING DARSDAN TASHQARI BO'SH VAQTINI MAZMUNLI O'TKAZISH METODLARI

M.S.Salayeva

Urganch davlat universiteti professori

N.Akimova

Urganch davlat universiteti tyutori

Annotatsiya: Ushbu tezisda universitet talabalari o'rtasida vaqtdan foydalanish usullarini, ularning bo'sh vaqtlarini kundalik hayotining bir jihati sifatida qarash, ayniqsa talabalarning bo'sh vaqtida har hil yomon yo'llarga kirib ketmasligi uchun bir qancha metodlar qo'llanilgan. Universitetda ular o'z shaxsiy rivojlani va o'z time manajmentga e'tibor qaratishlariga oid takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Bo'sh vaqt, time management, talabalar, institute, shahsiy rivojlanish.

Yoshlarda asosiy ijtimoiy jarayonlar va rivojlanish, umuman olganda va universitet talabalari bo'yicha mavjud tadqiqotlarda ta'kidlangan shuningdek, qo'llaniladigan asosiy sotsiologik tushunchalar bu jarayonlar va rivojlanishlardir. Keng sotsiologik nuqtai nazarni qabul qilib, u talabalarning universitet hayotini va ularning hayotini tushunishga asoslanadi. Bo'sh vaqtni o'tkazishda, ayniqsa, yoshlarning holatini o'rganish talab qiladi.

Mamlakatimiz aholisining deyarli 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Ya'ni, raqamlarda ifodalaydigan bo'lsak qariyb 11000000 ga yaqin yoshlar mavjud. Buni hisobga olsak Yoshlarimiz davlatimizning naqadar muhim tomoni ekanligiga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan yoshlarimizning o'qish va ishdan bo'sh paytlarini mazmunli o'tkazishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularni turli foydali kasb-hunarlarga o'rgatish jamiyatimizni yuksaltirishning eng asosiy manbaidir. Shuning uchun yoshlarni vaqtini qanday o'tkazayotkanligini ota-onalar, ustoz va murabbiylar, mahalla faollari doimiy ravishda kuzatib borishlari shart. Chunki jamiyatimizning yosh avlodlariga to'g'ri yo'lni kattalar ko'rsatmasa ularning mafkurasini buzuvchilar topiladi.

Juda ko'p mashg'ulotlarga haddan tashqari rejalashtirilgan talabalar buni darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etishmasligi mumkin. Ortiqcha rejalashtirilgan tadbirlar talabalarni charchatadi, asabiylashadi va ishtirok etishga unchalik qiziqish bildirmasligi mumkin. Ortiqcha rejalashtirish juda ko'p jismoniy hamda ma'naviy zo'riqishlarni olib keladi. Ammo tadbirla va faoliyatga oid uchrashuvlar talabalrni yetakchilik qilish qobiliyatiga yordam beradi. Balki tadbirlar o'quvchilarga o'z-o'zini hurmat qilish, ta'lim ruhini rivojlantirish va ular bilan bog'lanishga yordam beradi va jamiyatda kattalar ijobiy tarzda hamma uchun yaxshi vaziyat yaratishi mumkindir. Hozirgi kunda intelektual mulkga sarmoya kiritish metodi juda keng qo'llanilmoqda misol uchun o'quv binosida turli hil creative zonelar yaratish yani tillarga etibor aborot texnologiyalarga bo'lgan e'tiborga moliq tadbirlar amalga oshirilmoqda. Talabalar o'zlarining tashabbusi bilan bu metodlar qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19 mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash

masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu yig’ilishda ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratilishi ta’kidlandi. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala ekanligi prezidentimiz tomonlaridan mutasaddi tashkilotlar rahbarlariga vazifa qilib yuklandi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shuncha kuchli bo‘ladi

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan shunday vaziyatda yosh avlodning dunyoqarashini o’stirib bo’sh vaqtlaridan unumli foydalanishga odatlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki dono xalqimizda “Vaqting ketdi-naqding ketdi” degan naql bor. Bo’sh vaqtlarimizni mazmunli o’tkazish uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar bor. Talaba yoshlar darsdan bo’sh vaqtlarini o’z yotoqxonalaridan chiqmay turib ham mazmunli o’tkazishlari mumkin. Masalan, kitob o’qishlari, shashka va shaxmat o’qlni charxlovchi o’yinlarni o’ynashlari, onlayn til kurslarini tomosha qilishlari va shu kabi o’zi qiziqqan boshqa foydali mashg’ulotlar bilan band bo’lishlari foydadan holi bo’lmaydi. Prezidentimiz ham bu borada talaba yoshlarimizning bo’sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari uchun ularni o’qishdan keyingi paytlarda o’z sohalri bo’yicha ishlashga imkoniyat berdilar. Tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o‘yinlari markazlarini tashkil etish, ularda bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo‘lishi zarurligini o’z yi’g’ilishlarida alohida ta’kidlab o’tdilar. Yoshlarda bolalik chog‘idan kitobga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish ularning hayot yo‘llarida mustahkam zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Roberts, K. (2013). Leisure and the life course. In T. Blackshaw (Ed.), Routledge handbook of leisure studies (pp. 257-265). Abingdon: Routledge.
2. Allison, J. (2006). 'Over-educated, over-exuberant and over here? The impact of students on cities'. Planning, practice and Research, 21(1), 79-94.
3. “YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI TO‘G‘RISIDA”gi O’zbekiston Respublikasi qonuni, 14.09.2016 yildagi O’RQ-406-son